

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OTORINOLARINGOLOGIYAGA (LOR) OID LEKSIK-BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Kalimbetova D.A.

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21423350>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida otorinolaringologiyaga (LOR) oid leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik aspektda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda LOR terminlarining semantik tarkibi, ma’no munosabatlari, terminologik tizimdagi o‘rni hamda ularning nominativ, denotativ va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalitso‘zlar:leksik-semantik,terminlashuv,lisoniy,leksema,kommunikativ,nominatsiya.

Har bir til o‘zaro uzviy bog‘langan sath va darajalardan iborat murakkab hamda yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimda so‘z yasash sathi tilning lug‘aviy tarkibini boyituvchi va yangi nominativ birliklarni hosil qiluvchi muhim lisoniy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda so‘z yasashning mohiyati, struktur-semantik xususiyatlari, yasash usullari hamda til tizimidagi o‘rni yuzasidan turli ilmiy-nazariy qarashlar shakllangan. So‘z yasashi tilning ichki rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi dinamik jarayon bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti, fan va texnika rivoji hamda kommunikativ ehtiyojlarning ortib borishi bilan uzviy bog‘liq holda muntazam takomillashib boradi. Shu sababli ayrim terminlar muayyan davrning ilmiy-amaliy ehtiyojlari ta’sirida vujudga keladi, faol iste’molga kiradi, keyinchalik esa o‘z dolzarbligini yo‘qotib, passiv qatlamga o‘tishi yoki iste’moldan chiqishi mumkin. Aksincha, lisoniy va kommunikativ zarurat bilan bog‘liq terminlar tilning faol lug‘aviy tarkibida barqaror saqlanib qoladi hamda yangi semantik va funksional xususiyatlar kasb etadi. Til lug‘at tarkibining boyishi nafaqat ekstralingvistik omillar, balki tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan belgilanadigan lingvistik omillar ta’sirida ham yuz beradi. Aynan shu jarayonda yangi so‘z va terminlarning affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya hamda leksik-semantik usullar orqali hosil qilinishi terminologik tizimning izchil rivojlanishini ta’minlaydi. Binobarin, so‘z yasash jarayonini ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish, uning derivatsion, struktur-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlash hamda zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida lisoniy tavsiflash dolzarb ilmiy masalalardan biri sanaladi.

Tilshunos olim T.V. Jerebilo leksik-semantik usul haqida so‘z yuritar ekan, u ushbu usulning zamonaviy tilshunoslikda sermahsul usullardan biri ekanini ta’kidlagan holda, “...tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nolaridan tashqari, ularning moddiy tarkibini va fonemik strukturasini saqlagan holda o‘zgartirish natijasida vujudga keladi” [1, 121]. Til birliklarini leksik-semantik usul orqali hosil bo‘lishi xususida G.A. Martinovich esa T.V. Jerebiloga qaraganda biroz boshqacharoq fikrni ilgari suradi. Unga ko‘ra: “...so‘z yasashning leksik-semantik usuli til birliklarining ma’nolarini o‘zgartirib, keyinchalik ularni omonim so‘zlarga tenglashtirishdan iboratdir. Biroq, ular bu jarayonda struktur jihatdan bir xil, ammo turli xil (etimologik mustaqil) so‘zlar sifatida e’tirof etila boshlangan. Ular o‘ziga xos sintaktik va paradigmatic aloqaga ega bo‘lib, ba’zan boshqa leksik-grammatik, stilistik va funksional xususiyatlarga ega bo‘ladi” [2, 39]. Taniqli rus tilshunosi V.P.Danilenko leksik-semantik usul orqali til birliklarining hosil bo‘lishi xususida o‘zining fikrini quyidagicha bayon etadi: “Umumiste’mol leksikasining terminlashuvi jarayonida uning ma’no turlari, mazmuni va muayyan obyekt, voqelikni ifodalay olish jihatlari bilan ajralib turadi. Bir tarafdin metafora asosida denotatlarning almashinuvi yuzaga kelsa, boshqa tarafdin esa

soʻz maʼnolari tizimi va ilmiy tushunchalar tizimining bevosita aloqasi bois signifikatlarning mazmuni uzluksiz ravishda chuqurlashib boradi” [3, 24].

Oʻzbek tilshunoslaridan H.Shamsitdinova oʻzbek tilida leksik-semantik usul bilan termin yasalishi haqida oʻzining quyidagi fikrini bildiradi: “Leksik-semantik usul bilan termin yasalishi haligacha alohida bir tadqiqot obyekti boʻlgan emas. Biroq, ushbu usul bilan termin yasash haqidagi dastlabki qarashlar va ilmiy yondashuvlar haqida S.Ibrohimov tomonidan ancha oldin qayd etilgan edi [4, 136].

Ingliz va oʻzbek tillarida leksik-semantik maʼnoga ega boʻlgan LOR (otorinologiya) leksik birliklari koʻpincha oʻzining tibbiy maʼnosidan tashqari, obrazli yoki emotsional qoʻshimchalarni ham anglatadi. Quyida shunday leksik birliklarga misollar keltiramiz. Masalan: ingliz tilida **voice** (oʻzb.) **ovoz** terminini olib qaraydigan boʻlsak, tibbiyot sohasida *ovoz chiqarish qobiliyati* bilan bogʻliq jarayon tushuniladi. Ushbu termin “zimma”siga leksik-semantik usuli taʼsirida qoʻshimcha maʼno yuklanadi. Yaʼni, terminning semantik koʻlami yanada kengayadi, baʼzi holatlarda esa metaforizatsiya hodisasi yuz berishi natijasida maʼno koʻchishi sodir boʻladi. Bu oʻrinda muayyan leksema birlamchi nominatsiyasidan tashqari ikkilamchi nominatsion va motivatsion funksiyaga ega boʻlishi mumkin. Ingliz tilidagi **voice** (oʻzb.) **ovoz** leksemasining leksik-semantik usuli orqali hosil boʻlgan til birligi sifatida *kimningdir fikri, taʼsiri yoki huquqi borligini* anglatadi. Bu aslida ingliz tilidagi “to have a voice” iborasi bilan mutanosibdir. Masalan, “Everyone deserves to have a voice in the discussion” [5] – *Har bir kishi muhokamada oʻz fikrini bildirishga haqli*. Oʻzbek tilida ham shunday holat kuzatiladi. Oʻzbekcha **ovoz** (ing.) **voice** leksemalari oʻzida biroz konnotativ xususiyatni namoyon qiladi. **Oʻzbek tilida: “ovozi bor”** — shaxsiy fikrga yoki huquqqa ega boʻlish. Masalan, “*U oʻz ovozini topdi*” – U oʻz fikrini bildirishga muvaffaq boʻldi, degan maʼno kelib chiqmoqda. Ushbu terminga quyidagi yana bitta misolni keltirishimiz oʻrinli. Ingliz tilida: “*She found her voice in writing*” – “**ovoz – voice**” bu yerda shaxs oʻzini toʻlaqonli bayon qilish/namoyon qilish yoʻlini topganini ifodalab kelmoqda. Oʻzbek tilida: “*U yozish orqali oʻz ovozini topdi*” – shaxs oʻz ijodiy yoʻlini topganini bildirib keladi.

Shuningdek, chogʻishtirilayotgan LOR terminlaridan yana bir **throat – tomoq, halqum** terminidir. Ushbu termin insonning anatomik organi sifatida muhim ahamiyatga ega. Uning tibbiy (denotativ) maʼnosi - *oziq-ovqatni isteʼmol qilish va nafas olish uchun moʻljallangan maxsus tana aʼzosi* sifatida taʼriflanadi. Ushbu birlikning semantik yoxud leksik-semantik usul orqali hosil boʻlgan maʼnosini **janjallashish/tortishish** maʼnosida izohlash mumkin. Misol: “*They’ve been at each other’s throats all day - ular kun boʻyi janjallashdi*”. **Throat – tomoq (halqum)** terminiga yana bitta quyidagi misolni keltiramiz. “*The words stuck in his throat*” – Bu ibora shaxsning gapirishda qiynalayotganini koʻrsatadi va bu oʻrinda *throat – tomoq (halqum)* termini oʻzining semantik diapazoniga ikkilamchi nominatsion xususiyatni mujassamlashtirgan holda *kishining biror narsani aytishga ojiz qolishni* ifodalab kelmoqda. Oʻzbek tilida esa konnotativ maʼnoda: “*Gap uning halqumiga kelib tiqildi*” yaʼni, *biror narsani ayta olmaslik, soʻzlarini topa olmasdan noqulay ahvolga/vaziyatga tushib qolishni* bildiradi.

Yuqorida keltirilgan amaliy misollardan anglashiladiki, chogʻishtirilayotgan tillarda zarurat tugʻilishi sababli LOR terminologiyasida muayyan leksemalarning semantik oʻzgarishi, ularning maʼno koʻchishi, terminologik birliklarning neytral maʼnolari orasidagi oʻzaro bogʻlanish uzilib, ayrimlarining xoslanishi orqali yangi leksik birliklarning hosil boʻlishi, yaʼni muayyan leksemalar semantikasining kengayishi kuzatiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Жеребило Т.В. Термины и понятия: Морфемика. Словообразование: – Назрань. 2011. С. - 121
2. Мартинович Г.А. Терминологический словарь: русский язык, стилистика, культура речи. СПб. 2006.
3. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: 1977. – С. 24.
4. Шамситдинова Х. Ўзбек тили илмий терминологиясини тартибга солиш тамойиллари. – Т.: 1991. – Б. 136.
5. LOR terminlari qo'llanilgan inglizcha jumlar va kontekstlar ABBYY Lingvo x6 elektron lug'atidan olindi.